

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 2

tsuull.uz  
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 2

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[uzlc.tsuull.uz](http://uzlc.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nozliya Normurodova  
**Mas'ul kotiblar:** Ozoda Tojiboyeva  
Sanjar Mavlonov

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nozliya Normurodova

**Executive secretaries:** Ozoda Tajibaeva  
Sanjar Mavlanov

### **Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

### **Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.tsuull.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### Hamid Bozorov

Fonetik dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari (o'zbek xalq ertaklari matnlaridagi dialektizmlar misolida).....6

#### Noorullah Altay, Tuyg'un Hussamuddin

O'zbek adabiy tilidagi ayrim muammoli so'zlar xususida.....20

#### Sabohat Bozorova

"Devonu lug'oti-t-turk" dagi ot bilan bog'liq leksika va maqollar.....36

#### Efsane Baxsheliyeva

Azerbaycan türkçesinde ve ingilizcede dost ve düşman kavramlarının dile yansması.....60

#### Nigar Babayeva

Azerbaycan türkçesinde ve İngilizcede kültürel kelimelerin (realiaların) çeviri süreci ve bu süreçte karşılaşılan zorluklar.....73

### Adabiyotshunoslik

#### Shamsuddin Ortaq

*Yıldızlı Geceler* Romanında Babür ile Nevai'nin Edebi İlişki Kapsamının Yansması.....86

### Fan. Ta'lim. Metodika

#### Madina Nazarova

Diplomatik diskursda *tema* va *rema* modellari.....99

### San'at

#### Sabina Namazova

16 yüzyıl Tebriz ve Babür Minyatür Okullarının Yapısal-tipolojik paralelleri.....113

## CONTENT

### Linguistics

#### **Hamid Bozorov**

Lingvopoetic Features of Phonetic Dialectisms (examples of Dialectisms in the Texts of Uzbek Folk tales).....6

#### **Noorullah Altay, Tuygun Hussamuddin**

On some Problematic words in the Uzbek Literary Language.....20

#### **Sabohat Bozorova**

Vocabulary and Proverbs Related to Horses in the “Dīwān Lughāt al-Turk” .....36

#### **Efsane Bakhsheliyeva**

The Concepts of Friend and Enemy in Azerbaijani and English.....60

#### **Nigar Babayeva**

Translation Process of Cultural Words (Realias) in Azerbaijani Languages and English and the Challenges Encountered in this Process.....73

### Literature

#### **Shamsuddin Ortaq**

The Reflection of Babur and Navai’s Literary Relationship in *The Starry Nights*.....86

### Science. Education. Methodology

#### **Madina Nazarova**

Theme and Rheme Patterns in Diplomatic Discourse: Implications For Esp Pedagogy.....99

### Art

#### **Sabina Namazova**

Structural-typological parallels of the 16<sup>th</sup> century Tabriz and Babur Miniature Schools.....113

## O'zbek adabiy tilidagi ayrim muammoli so'zlar xususida

Noorullah Altay<sup>1</sup>  
Tuyg'un Hussamuddin<sup>2</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek tili bugungi kunda dunyo miqyosida ellik milliondan ortiq so'zlovchiga ega bo'lgan yirik turkiy tillardan biri sifatida – O'zbekiston va Afg'onistondagi holati hamda mazkur ikki hududda yechimini kutayotgan dolzarb masalalar atroflicha tahlil etiladi. Dastlab, O'zbekistonda o'zbek tilining mustaqillik davrigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyoti, xususan, o'tgan davrlarda rus tili ta'siri ostida bo'lganligi sababli fonetik, leksik va qisman grammatik tizimida yuzaga kelgan nomuvofiqliklar, ularning bugungi adabiy til rivojiga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Maqolada, shuningdek, Afg'onistonda yashovchi o'zbeklarning til holati, u yerda o'zbek tilining rasmiy maqomdan mahrumligi tufayli yuzaga kelgan til siyosatiga oid muammolar tahlil qilinadi. Afg'oniston o'zbeklari orasida tilning ijtimoiy-madaniy hayotdagi tutgan o'rni, uning qo'llanish darajasi va adabiy me'yorlar asosida shakllanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar, shu bilan birga mavjud imkoniyatlar ilmiy-nazariy yondashuv asosida yoritiladi.

Maqolada, ayni paytda, Afg'onistonda o'zbek adabiy tilini shakllantirish, uni ommalashtirish va barqaror rivojlantirish istiqbollari hamda bu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** *o'zbek adabiy tili, davlat tili, milliy til, o'zbek tilining tarixi, tovush tizimi, til siyosati, rus tili ta'siri, Afg'onistondagi o'zbek tili.*

### Kirish

Til ijtimoiy hodisa bo'lgani sababli, u vaqt o'tishi bilan uzviy

---

<sup>1</sup> *Altay Noorullah Nematullah* – Afg'oniston Islom Amirligi, Javzijon universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti.

**E-mail:** Altaynoor61@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0008-8413-4247

<sup>2</sup> *Tuyg'un Sayed Hussamuddin* – Afg'oniston Islom Amirligi, Javzijon universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri.

**E-mail:** husomiddin@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0002-9862-0867

**Iqtibos uchun:** Noorullah Altay, Tuyg'un Hussamuddin. 2025. "O'zbek adabiy tilidagi ayrim muammoli so'zlar xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 20 – 35.

ravishda rivojlanib, o'sib boradi. Bu rivojlanish, asosan, tilning lug'at tarkibining boyishi va yangilanishi orqali amalga oshadi. Fan va texnologiya taraqqiyoti tillarga yangi so'zlar va tushunchalarni olib kiradi. Chunki texnologik yangiliklar qaysi mamlakatga kirib bormasin, o'z nomi bilan birga kirib boradi. Bunday yangi atamalarga til sofligini himoya qilishga intilayotgan olimlar o'z tillarining imkoniyatlarini hisobga olib, yangi so'zlarni yaratishga harakat qilishlari shart. Ammo bu jarayonda mehmon so'zlar mezbon tilning ichida mustahkam o'rin olib, uni haydab chiqarish qiyin bo'lib qoladi.

Shundan kelib chiqadiki, insonlar ijtimoiy hayotlarida atrofdagi odamlar bilan muntazam muloqotsiz yashay olmasliklari kabi, tillar ham faqat o'z imkoniyatlari doirasida yashay olmaydi. Zarur so'zlar boshqa tillardan olinadi, boshqalarga esa o'z tillaridan so'zlar beriladi. Shu bois, o'zbek tili ham bunday almashinuv jarayonidan chetda qolmagan. Biroq, til munosabatlarini shakllantirishda til vakillarining o'z jamiyatidagi ijtimoiy va siyosiy mavqeyi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Siyosiy jihatdan mustaqil bo'lmagan xalqning tili qanchalik boy va qanchalik ifoda qudrati yuksak bo'lmasin, uning o'ziga xos mavqeyini topishi va jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlashi qiyin kechadi. Bu esa har bir davlatning til siyosatiga bevosita bog'liqdir. Masalan, o'tgan asrda Afg'onistonda o'zbek tilining rasmiy tili sifatida qabul qilinishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi, hatto o'zbek xalqining mavjudligini tan olish ham boshqaruvdagi kuchlarning fikriga zid edi. Bugungi kunda mamlakatda tilimiz o'zbek tili rasmiy maqomga ega bo'ldi va uning taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Hozirgi paytda Afg'onistondagi sakkizta universitetda o'zbek tili va adabiyoti kafedralari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Afg'onistonning shimoliy viloyatlaridagi maktablarda o'zbek tili bir fan sifatida o'qitilmoqda.

Xo'sh, Afg'onistonda o'zbek tili adabiy va me'yoriy til sifatida o'z o'rnini topa oldimi? Afsuski, bu savolga ijobiy javob bera olmaymiz. Garchi o'zbek tilida yozish va o'qishga nisbatan ta'qiq deyarli yarim asr muqaddam bekor qilingan bo'lsa-da, bu til haligacha me'yorlashtirilgan adabiy til sifatida mustahkam mavqe egallay olgani yo'q.

Afg'onistondagi ayrim oliy ta'lim muassasalari va muallim tayyorlash institutlarida o'zbek tili va adabiyoti bo'limlari mavjud bo'lsa-da, ular ko'p hollarda rasmiyatchilik darajasida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, bugun o'zbeklar ko'pchilikni tashkil

etadigan viloyatlar maktablarida o'zbek tili alohida fan sifatida o'qitilmoqda. Biroq bu holat bilan barcha muammo hal bo'ldi, deb bo'lmaydi. Har xillik va tartibsizlik holatlari hanuzgacha bilim yurtlarida, maktablarda, matbuot va nashriyotlarda, ommaviy axborot vositalarida ham uchrab turibdi.

## **1. O'zbek adabiy tilini mavjud holicha qabul qilish mumkinmi?**

Til, eng avvalo, insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu - tilning birlamchi va eng asosiy funksiyasidir. Biroq, buning o'ziga xos davomchisi sifatida til inson tafakkuri va milliy ruhining ko'zgusi hamdir. Insonning ona tiliga bo'lgan mehr-muhabbati, aslida, aynan ushbu ikkinchi jihatdan tafakkur va milliy o'zlik bilan bog'liqdir. Agar til faqat aloqa vositasi bo'libgina qolganida edi, har bir kishi jamiyatda mavqeyi kuchliroq bo'lgan tilni bemalol egallab, o'sha tilda muloqot qilishga o'tgan bo'lardi.

### **1.1. Adabiy til haqida.**

Til, umumiy tarzda, ikki shaklda mavjud bo'ladi: adabiy til va so'zlashuv tili. Adabiy til - tovush, so'z va grammatik qatlamlari ma'lum me'yor va qoidalarga bo'ysungan, shu til sohiblari tomonidan umumiy qabul qilingan til shaklidir. Adabiy tilning taraqqiyotida esa matbuot, nashriyot, radio, televideniye, bilim yurtlari va maktablar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

So'zlashuv tili esa ko'proq ma'lum hudud doirasida yashovchi aholiga xos bo'lib, ko'proq og'zaki muloqotda qo'llanadi.

Ma'lumki, Afg'oniston hududida o'zbeklar qadimdan Faryobdan to Badaxshongacha bo'lgan keng o'lkalarda istiqomat qilib keladi. Afsuski, turli ijtimoiy-siyosiy omillar sababli bu mintaqalardagi o'zbeklar tili ko'p hollarda faqat so'zlashuv darajasida qolib ketgan.

Bugungi kunda o'zbek tili Afg'onistonda uchinchi rasmiy til sifatida tan olingan bo'lsa-da, bu tilning qaysi sohalarda, qanday huquqiy asoslarda qo'llanilishi borasida amaliy mexanizm ishlab chiqilmagan.

### **1.2. Afg'oniston o'zbek adabiy tilini shakllantirish yo'llari.**

Bugungi sharoitda Afg'oniston o'zbek adabiy tilini shakllantirishning, asosan, ikki yo'li mavjud:

1. Afg'onistonda yashovchi o'zbeklarning lahja va shevalarini chuqur o'rganib, ular asosida mustaqil adabiy til yaratish;

2. To'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston o'zbek adabiy tilini qabul qilish.

Ammo mavjud ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitdan kelib

chiqib aytish mumkinki, birinchi yo'l, ya'ni Afg'oniston lahja va shevalari asosida yangi adabiy til yaratish amaliy jihatdan deyarli imkonsizdir. Bu holat hammaga kundek ravshan. Shu boisdan, hozirgi bosqichda ikkinchi yo'l – O'zbekiston o'zbek adabiy tilini qabul qilish masalasining ilmiy, amaliy va mantiqiy asoslarini ko'rib chiqish zarurati tug'iladi.

O'zbek adabiy tili tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tilshunos olimlar uni uch asosiy bosqichga ajratadilar:

1. Qadimgi turkiy adabiy til.
2. Eski o'zbek adabiy tili.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

**Qadimgi turkiy adabiy til** milodiy 5–13-asrlar oraliq'ini o'z ichiga oladi. Bu davrga O'rxun-Enasoy yodgorliklari, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”i, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”i va boshqa muhim ilmiy-adabiy manbalar kiradi. Ahamiyatli jihati shundaki, bu yodgorliklar barcha turkiy xalqlarning umumiy madaniy merosi hisoblanadi.

**Eski o'zbek adabiy tili** esa milodiy 13-asrning ikkinchi yarmidan 19-asrning oxirigacha davom etgan. Bu bosqichda Hofiz Xorazmiy, “Muhabbatnoma” muallifi Xorazmiy, Amiriy, Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Munis, Muqimiy, Ogahiy, Avaz O'tar kabi yirik adib va mutafakkirlarning asarlari orqali o'zbek adabiy tili yuksak taraqqiyot bosqichiga yetdi.

**Hozirgi o'zbek adabiy tili** esa 20-asr boshidan boshlab shakllana boshlagan va bugungi kungacha uzluksiz rivojlanib kelmoqda. Bu bir asrdan oshiq vaqt mobaynida o'nlab shoir va yozuvchilar o'z asarlari bilan o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti sahnasiga olib chiqdilar. Ayni paytda, hozirgi o'zbek adabiy tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida barcha sohalarda – ta'lim, fan, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, rasmiy hujjat yuritish va boshqalarda faol xizmat qilmoqda.

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili boy tarixiy ildizlarga, shakllangan grammatik me'yorlarga, keng adabiy va ilmiy bazaga ega bo'lgan mukammal til tizimidir. Shu boisdan, Afg'oniston o'zbeklarining til siyosati, madaniy taraqqiyoti va milliy birlik nuqtayi nazaridan aynan shu tilni qabul qilish eng maqbul va mantiqiy yo'l sanaladi.

Xo'sh, shunday ekan, O'zbekiston o'zbek adabiy tilini to'liq va izchil tarzda qabul qilish mumkinmi? Hozirgi o'zbek adabiy tili

o'zining yuz yillik tarixiy taraqqiyotida butunlay xatolardan xoli bo'lgan tilmi? Uning ichki tizimida o'zgarishlar bo'lmadimi?

XX asr boshlariga qadar o'zbek xalqi yashab kelgan turli hududlarda til jihatidan sezilarli farqlar mavjud bo'lmagan. Bu da'voni tasdiqlovchi ishonchli dalillardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning Alisher Navoiyga bergan bahosidir. Bobur Andijon shahri aholisi va ularning tili haqida yozarkan, shunday deydi: "Eli turkdur, shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Aning uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovu dikim Hiri yda nash-u namo topibtur, bu til biladur."

Bu fikrlar shundan dalolat beradiki, Andijon va Hirot o'zbeklari tilida yaqinlik kuchli bo'lgan. Bunga sabab, o'zbek adabiy tilining asosini tashkil etuvchi qadimiy turkiy til aynan sharqiy qarluq-chigil-uyg'ur hamda g'arbiy o'g'uz-qipchoq lahja birliklari negizida shakllanib, XIII–XIV asrlarga kelib mukammal bir adabiy tilga aylangan edi. Bu til Movarounnahr va Xurosonda keng qo'llanilgan bo'lib, lug'aviy boyligi, fonetik va morfologik tizimi shakllangan, yozma adabiyotning asosiy vositasiga aylangan edi.

O'zbek adabiy tilida Navoiy ijod qilgan tilda so'zlashuvchi xalq XIV–XV asrlarda Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi, Samarqand, va bugungi Afg'onistonning shimoli va shimol-sharqiy hududida istiqomat qilgan. Demak, bu adabiy til bir xalqning umumiy tili sifatida yuzaga chiqqan edi. Boburning ta'kidicha, Hirot va Farg'ona o'zbeklari orasida til tafovuti deyarli mavjud bo'lmagan. Shunday ekan, bugungi ayrim farqlarning paydo bo'lishi Kobul va Moskva siyosatlarini natijasi sifatida qaralishi kerak.

Masalaga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar undan chetda qolmaydi. Siyosiy ta'sir, odatda, tilning leksik qatlamida yaqqol namoyon bo'ladi. Keyingi asrlar davomida bir-biriga yondosh yashagan, tili, dini, urf-odatini bir xalq o'zbeklar sun'iy tarzda ajratilib, biri "Rusiy Turkiston", ikkinchisi "Afg'oniy Turkiston" deb nomlandi. Ular orasiga "temir devor" tortilib, ijtimoiy-siyosiy chegaralar bilan bo'lingan bu xalqning tili ham ikki yo'nalishda rivojlana boshladi: biri rus tili ta'siri ostida, boshqasi esa fors tili ta'siri ostida qolib ketdi.

Bu tafovut O'zbekiston o'zbek adabiyotida ham kuzatilgan. XX asr boshlarida Sovet siyosati natijasida ko'plab adiblar – Abdulloh Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Botu kabi siymolar "xalq dushmani" sifatida tamg'alangan, surgun qilingan yoki qatl

etilgan. Natijada o'zbek adabiy tilining tabiiy rivojlanish yo'li to'sib qo'yilgan.

Aynan shu davrda davlat mafkurasi bilan mos kelgan ayrim yozuvchilar ba'zida millati o'zbek bo'lmagan, biroq rasmiy topshiriq asosida o'zbek tilida asarlar yozgan shaxslar sun'iy ravishda adabiyot sahnasiga olib chiqildi. Natijada o'zbek adabiy tiliga turli fors-tojikcha so'z va iboralar singdirildi, bu esa tilning tabiiyligi va xalqchilligiga zarar yetkazdi.

Bu so'zlardan ayrimlarining tahliliga to'xtalsak:

*Astoydil* – bu so'z uch unsur dan tashkil topgan: az – dan, ta – ich, dil – yurak. Holbuki, o'zbek tilida bu ma'noni ancha tabiiy va chiroyli ifoda etuvchi “yurakdan”, “chin yurakdan” kabi shakllar mavjud. Shu bois, bu kabi murakkab va tilda begona tus olgan ifodani qabul qilish zarur emas. Hatto arab tilidagi “qalban” so'zining qo'llanishi ham ixcham va tushunarli: *Astoydil sizga ishondim. Yurakdan sizga ishondim. Chin yurakdan sizga ishondim. Qalban sizga ishondim.*

Mazkur mazmuni ifodalash uchun tilimizda bunday go'zal va tabiiy vositalar mavjud ekan, o'zbek tilining tabiatiga zid bo'lgan sun'iy va begona unsurlarni majburan kiritishning zarurati bormi?

Yoki *azbaroyi* so'zini olaylik. Bu so'z ikki qismdan – az (dan) va baroi (uchun) forscha ko'makchilardan tuzilgan bo'lib, “uchun” ko'makchisi ifoda qiladign vazifada ishlatiladi: *Azbaroyi meni yolg'iz tashlab qo'yganingizdan aytdim*, degan gapni oddiy o'zbek tilida quyidagicha bayon qilish mumkin: *Bu gaplarni ayniqsa siz bilan menga to'g'ri kelmasa ham, meni yolg'iz tashlab qo'yganingiz uchun aytdim.*

Bu so'zlar ham forsiy tarkib ba forsiy qoida asosida tuzilgan bo'lib, tilimiz tabiatimga zid. Demak, bu va bunga o'xshagan sun'iy tarkiblar va iboralar tilimizga ilmiy tahlilsiz va tanqidiy yondashuvsiz, mas'uliyatsizlik bilan olib kirilgan. Bunday unsurlar ustida alohida to'xtaladigan bo'lsak, yuzlab sahifalarni bag'ishlashga to'g'ri keladi.

Tilimizning tabiiyligiga putur yetkazayotgan varvarizmlar (begona, keraksiz so'zlar) ro'yxatini taqdim etamiz.

### **1.3. So'z yashashdagi xatolar.**

Bundan tashqari, so'z yasashda ham o'zbek tilining morfologik qonuniyatlariga zid ravishda forscha old qo'shimchalar had-dan ziyod qo'llanmoqda:

#### **1.3.1. “no-” old qo'shimchasi:**

Bu qo'shimcha ham “be-” bilan sinonim bo'lib, ayrim sifatlarni hosil qiladi: **notinch** (tinchsiz), **noo'rin** (o'rinsiz).

Bu yerda ham o'zbek tilidagi "-siz" qo'shimchasi yetarli.

### 1.3.2. "ba-" old qo'shimchasi:

Bu qo'shimcha "-li" bilan sinonimdir: *baquvvat - quvvatli, badavlat - davlatli, basavlat - savlatli*.

Aslida bu qo'shimcha fors tilidan kirgan bo'lib, ko'plab so'zlarda buzilgan shaklda (bo o'rniga ba) ishlatilgan: *boadab, bodavlat, boquvvat, bosavlat* kabi.

### 1.3.4. "be-" old qo'shimchasi:

Bu qo'shimcha so'z negiziga birikib, anglanayotgan xususiyatning yo'qligini bildiradigan sifat yasaydi: bemaza (mazasiz), betuz (tuzsiz), besharaf (sharafsiz), beayov (ayovsiz). Lekin o'zbek tilida ayni vazifada keladigan "-siz" qo'shimchasi yetarli darajada faol: *beayov o'rniga ayovsiz, beto'xtov o'rniga to'xtovsiz* kabi.

Bu qo'shimcha xususan o'zbekcha so'zlaganda tilning fonetik qiyofasini buzadi: *beajin (ajinsiz), beunum (unumsiz), beo'xshov (o'xshovsiz), beto'xtov (to'xtovsiz)* kabi.

### 1.3.5. Fonetik jihatdan buzilgan arabcha va forscha so'zlar.

O'zbek adabiy tilida ayrim arabcha va forscha so'zlar noto'g'ri, buzilgan shaklda kirib qolgan. Bu holat o'zbek olim va yozuvchilarining beparvo munosabatining natijasi bo'lib, ularni izma-iz takrorlash ikki karra xatodir: zim-ziyo (sim-siyoh - سمسياه), poyabzal (poyafzor/poyabzor پای‌افزار، پای‌افزار), zimdan (zimnan - ضمناً), malham (marham - مرهم), tilsim (tilism - طيلسّم), baralla (barmalo بريملا), tamatti (tamattu' - تمتع), mahtal (ma'tal - معطل), barakalla (borikalloh - بارك‌الله), kaft (kaf - كف).

Bularning to'g'ri, asl shakllari mavjud bo'lsa, aynan shularni qo'llash maqsadga muvofiq.

### 1.3.6. Etimologiyasi noaniq so'zlar.

Ba'zi so'zlarning kelib chiqishi noma'lum yoki shubhali bo'lib, bular adabiy tilga kiritilishi savol ostidadir: xalaqit (xalal?), bafurja (bafursat?), ahil (ahl?), poyabza (poyabzor?) kabi.

### 1.3.7. O'zbek tili lahjalarida bor so'zlarni boshqa tildan olish muammosi.

O'zbek tili lahja va shevalarga boy til hisoblanadi. Ma'lum bir shevada muayyan tushunchani ifodalovchi so'z mavjud bo'la turib, fors yoki arab tilidan so'z omonatga olish ilmiy jihatdan mantiqli ko'rinmaydi: tuxum (yumurta), gul (chechak), lab (dudoq), chap (so'l), rost (o'ng), peshona (manglay) kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi.

### 1.3.8. Mumtoz matnlardagi so'zlarning adabiy tilga

### **kiritilmasligi.**

O'zbek tili boy yozma merosga ega. So'zlarning o'zgarib borishi tabiiy jarayondir. Ba'zi so'zlar arxaiklashadi, ba'zilar esa siyosiy yoki ijtimoiy sabablarga ko'ra iste'moldan chiqadi. Ammo hozirgi kundagi narsa va hodisalarni begona tildan olingan so'zlar bilan emas, balki mavjud o'zbekcha nomlari bilan atash mantiqliroq: *tamug' (do'zax), uchmoq (Jannat), osig' (foyda), yanglig' (monand), oyva (behi), yoziq (gunoh), sunmoq (taqdim qilmoq), beganmoq (pisand qilmoq), ochun (dunyo), chog'ir (may), yozg'urmoq (ayblamoq, gunohkor demoq), yorg'u (sud, jazolovchi organ), yorg'ulamoq (hukm chiqarish, jazolamoq)* kabi.

O'zbek adabiy tilini rivojlantirish bo'yicha ancha izchil va samarali ishlar amalga oshirildi. Ammo, afsuski, ba'zan bu harakatlar ayrim jihatlarida biryoqlama tus olib, klassik adabiy merosdan yuz o'girish holida olib borildi. Xususan, hozirgi o'zbek adabiy tilining izohli lug'atini tuzishda, asosan, XX asrda yaratilgan adabiy manbalar asos qilib olingan, natijada ming yillik tarixga ega bo'lgan boy mumtoz adabiyot chetda qoldirildi. Holbuki har qanday til, eng avvalo, uning yozma yodgorliklari, adabiy merosi bilan barhayot bo'ladi. Tilda mavjud bo'lgan har bir so'z o'sha tilning bebaho mulki hisoblanadi. Shu bois, bu boyliklardan e'tiborsizlik bilan voz kechish – tilga nisbatan xiyonat bo'lishi mumkin.

Fors tilida, masalan, ming yildan ortiq adabiy merosdagi barcha so'zlarga zamonaviy til tizimida yashash huquqi berilgan. Fors olimlari va adiblari eski va yangi o'rtasida sun'iy devor qo'ymay, ular orasidagi tabiiy bog'liqlikni saqlab qolishga intilganlar. Bu tajriba biz uchun ham ibratlidir. Agarda biz ham eski-yangi demay, tilimizdagi barcha so'zlarga g'amxo'rlik bilan yondashsak, boy leksik merosimizni asrab, zamonaviy adabiyotimizni mumtoz adabiyotimiz bilan uyg'unlashtirish imkoniga ega bo'lamiz.

Afsuski, ba'zi tilshunos va adabiyotshunoslar bu yo'ldan bormay, aksincha, klassik adabiyotni zamonaviy til muhitidan ajratib qo'ydilar. Bu esa, klassik matnlarning bugungi avlod uchun tushunarsiz bo'lib qolishiga olib keldi. Mumtoz adabiyot, shunday qilib, cheklangan mutaxassislar doirasida muomalada qolmoqda.

Tilimizga arab tilidan kirib, ko'plik shaklida mustahkam o'rnashib qolgan so'zlarga yana grammatik ko'plik qo'shimchasi –lar ni qo'shish esa semantik va grammatik jihatdan ortiqcha bo'ladi. **Axborotlar, tashviqotlar, targ'ibotlar, ajdodlar, a'zolar, mushkilotlar** kabi shakllar tilimizda "ikki yoki uch karra ko'plik" holatini yuzaga keltiradi, bu esa na mantiqan va na estetik jihatdan o'zini

oqlaydi. Mumtoz adabiyotda bunday holatlarga duch kelmasligimiz ham bu da'voni isbotlaydi.

Shuningdek, o'zbek tilida jins kategoriyasi mavjud emasligini inobatga olsak, arab tilidan kirib, grammatik jinsni anglatuvchi "aziza", "kotiba", "muallima", "shoira", "muslima" kabi atamalarni o'zbek tilida joriy etish ham asosli emas. Bunday atamalar o'zbek tilining grammatik tizimiga mos kelmaydi.

O'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilmagan, biroq mumtoz adabiyot matnlarida kengan iste'molda bo'lgan yoki xalq orasida faol ishlatilayotgan ko'plab arabcha so'zlarni tilimizdan chiqarib tashlash nafaqat adolatsizlik, balki ilmiy nuqtayi nazardan insofsizlik bo'ladi. Bu so'zlar, xususan, "talofiy" (*zararni qoplash*), "tadoviy" (*davolash*), "muolaja" (*kasalni davolash*), "tashxis" (*diagnostika*), "tadris" (*dars berish*), "tarjih" (*ustun qo'yish*), "tadoruk" (*tay-yorgarlik*), "masraf" (*sarflov*), "tahammul" (*chidam*), "ta'xir" (*kechikish*) kabi atamalar hayotimizda muhim ijtimoiy va ilmiy tushunchalarni ifodalaydi. Ularni hayotimizdan siqib chiqarishga urinish tilimizga zarar keltiradi.

Yangi kirib kelgan so'zlar vaqt o'tishi bilan yangi muhitga moslashib, uning urf-odatlarini o'zlashtirgan holda yashaydi. Shunday ekan, bu o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar ham o'zbek tilining fonetik va morfologik me'yorlariga mos ravishda ishlatilsa, ular begonaligini yo'qotib, tilga singib ketadi. Bunga tilimizga rus tilidan yoki rus tili orqali yevropa tillaridan kirgan so'zlar misol bo'la oladi. Masalan, *biologiya*, *ximiya*, *ruchka*, *parik*, *yarus* kabi so'zlarni biz ko'pincha o'zbek tilining tovush tizimiga mos kelmaydigan ruscha talaffuz bilan aytamiz. Chunki bu so'zlarda urg'u o'zbek tilidagi so'zlardagidek oxirgi bo'g'inga tushmaydi.

## **2. Til me'yorini belgilashda tabiiylik muhim.**

O'zbek adabiy tili mustahkam me'yoriy asosga ega bo'lishi uchun u milliy ruh, milliy tafakkur va fonetik-morfologik tuzilishiga mos tarzda shakllanishi kerak. Bu esa turli tashqi til unsurlarini o'zlashtirishda ularni tanqidiy va ehtiyotkorlik bilan qabul qilishni taqozo etadi.

### **2.1. Nisbiy sifat yasovchi -viy(-iy) qo'shimchasining noto'g'ri qo'llanilishi.**

Bu qo'shimcha tabiatan arabcha so'zlar asosida nisbiy sifat yasaydi (a tovushi bilan tugagan so'zga -viy variant: ma'naviy, oilaviy, qabilaviy; qolgan hollarda -iy variant: kitobiy, ijtimoiy kabi). Aksincha, "sistemaviy", "temaviy", "partiyaviy" kabi Yevropa tillaridan olingan negizlarga sun'iy tarzda ulanib, o'zbek tilining tabiiylik

mezonlariga to'g'ri kelmaydi.

2.2. Forsiy izofatli birikmalarining haddan ortiq ishlatilishi.

Forscha muzof-muzof ilayh (izofa) tuzilmalari o'zbek tilida tabiiy emas. Tilimizda ular o'rniga sifatlovchi-sifatlanmish yoki qaratuvchi-qaralmish shakllar ishlatiladi. "bandizindon", "bamay-lixotir", "oromijon", "obakidandon" kabi holatlar bu fikrni tasdiqlaydi. Izofa shakllarining haddan ortiq qo'llanishi o'zbek tilining sintaktik tuzilmasiga yot hisoblanadi.

2.3. "Noma" va "xona" so'zlarini affiks emas, mustaqil so'z sifatida talqin qilish: Bu so'zlar bilan tuzilgan birliklar aslida qo'shma so'zlar hisoblanadi (oshxona, tasdiqnoma) va ularni morfologik emas, sintaktik yasalma sifatida ko'rish tilshunoslikda aniqlik keltiradi.

#### **2.4. O'zbek tilini tozalash maqsadida yaratilgan yangi so'zlar va ularning muammolari.**

Mustaqillik davrida ayrim tilshunoslar o'zbek tilini begona, ayniqsa, rus tilidan kirib kelgan – unsurlardan tozalashga intildilar. Bu harakatlar natijasida ba'zi hollarda lingvistik jihatdan asoslanmagan, tuzilishiga ko'ra nobob so'zlar ham muomalaga kirib keldi. Ularning ayrimlari o'zbek tilining leksik va grammatik tizimiga mos tushmasligi tufayli munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Masalan, "oliygoh" so'zi "oliy" (arabcha, "yuksak" degani) va "-goh" (forscha, joy yoki payt bildiruvchi) komponentlaridan tashkil topgan. Fors tilida "-goh" so'zi asosan ot yoki fe'l ildizlariga qo'shilib, joy yoki vaqt ma'nolarini bildiradi:

*Shomgoh* – shom vaqti

*Donishgoh* – bilim maskani (universitet)

Ammo "oliy" – sifat bo'lib, unga "-goh" qo'shilishi forsiy so'z yasash me'yorlariga to'g'ri kelmaydi, natijada "*oliygoh*" shakli lug'aviy va grammatik jihatdan nomuvofiq bo'ladi.

Shuningdek, "**hojatxona**" so'zi ham ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan. Bu so'z "hojat" (arabcha, "zarurat", "ehtiyoj") va "xona" (turar joy, xona) birikmasidan tuzilgan bo'lib, "ehtiyoj qondiriladigan joy" degan umumiy ma'noni beradi. Biroq, ehtiyoj so'zining ko'plab ma'nolari bo'lgani bois, "hojatxona" iborasi turlicha talqin qilinishi mumkin.

Shunga qaramay, *tualet* so'zini to'liq almashtira oladigan oddiy, ixcham, aniq muqobilni topish hali-hanuz tilshunoslik uchun ochiq masala bo'lib qolmoqda.

#### **2.5. Geografik atamalarda ruscha ohangdan voz kechish zarurati.**

Masalan, "Amerika", "Parij", "Fransiya" kabi geografik nomlarni "Amriko", "Poris", "Faronsa" shaklda talaffuz qilish maqsadga muvofiqdir. Bu masalada arabcha va forscha o'zlashmalar bilan o'zaro moslik saqlanishi mumkin. Aks holda, tilimizdagi tovushlar tizimi va talaffuz qonuniyatlari buziladi.

### **2.6. Ilmiy atamalarni milliylashtirish.**

O'zbek adabiy tilida ilmiy atamalar rus tili qonuniyati asosida talaffuz etiladi. Bu esa o'zbek tili tovush tizimiga mos kelmaydi. Bu masalada fors yoki turk tili tutgan yo'ldan boorish mumkin: "Kaltsi" atamasi o'rniga "kalsiyum", "kislorod" atamasi o'rniga "oksijan", "vodarod" atamasi o'rniga "hidrojan" so'zlarini ishlatlasak, tilimiz tabiatiga mos tushadi.

### **3. O'zbek adabiy tilida o'z muqobilini kutayotgan ayrim so'zlar.**

Til leksikasining boyishi tabiiy jarayon bo'lib, u boshqa tillardan so'z o'zlashuvi, mavjud birliklarning kengaytirilgan ma'noda ishlatilishi yoki yangi birliklar yaratilishi orqali kechadi. Biroq bu jarayon til tizimiga mutanosiblik, semantik aniqlik va grammatik izchillik bilan olib borilishi lozim. Quyida ba'zi so'zlar tahlil qilinib, ular o'rniga mavjud yoki mosroq muqobillar taklif etiladi:

*Abadiyan* – (abadiy suratda; O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-jild, 2-bet). Bu so'z "abad" (doimiylikni bildiruvchi arabcha so'z) asosida yasalgan bo'lsa-da, uning "abadiy" shakli o'zbek tilida allaqachon faol ishlatiladi. Shu boisdan, "abadiyan" shakli keraksiz takror yoki ortiqcha variant sifatida baholanishi mumkin. Ma'nodosh shakllari: abadiy, umrbod.

*Abzal* – (ot-ulovni minish yoki aravaga qo'shish uchun zarur asboblarni majmui; Izohli lug'at, 1-jild, 4-bet).

Bu birlik fors tilidagi "abzor" yoki "afzor" so'zidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilida fonetik jihatdan buzilgan holda "abzal" shaklida qabul qilingan. Ayni ma'no "yugan-asbob", "o'rgat aslahalari" kabi xalqona yoki aniqroq iboralar orqali ifodalanishi mumkin.

*Arzanda* – (1. Orzu bilan erishilgan farzand. 2. Sevimli, erka bola; Izohli lug'at, 1-jild, 73-bet).

Bu so'z fors tilida "arzanda" shaklida mavjud bo'lib, "qadrli", "muhtaram" kabi ma'nolarni bildiradi (Farhang-e Buzurg-e Suxan lug'atiga ko'ra). O'zbek tilidagi "erkatoy", "sevimli" so'zlari esa bu so'zning ikkinchi ma'nosini to'laqonli ifodalaydi. Arab tilidan kirgan "muhtaram", "muhim", "aziz" so'zlari esa birinchi ma'no uchun yetarli muqobil hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu so'zni yangi birlik sifatida

kiritish semantik jihatdan ortiqcha bo'lishi mumkin.

*Arzanda-karomanda* – (juda ham arzanda; Izohli lug'at, 1-jild, 73-bet).

Bu birikma morfologik jihatdan murakkab va ommalashmagan bo'lib, na mazmun, na shakl jihatidan keng iste'molga ega emas. "Joni aziz", "ko'ngli erka", "qalbga yaqin" kabi xalqona ifodalar mazmunan qulayroq va tushunarliroqdir.

*Azbaroyi* – (uchun, sababli; kuchaytiruvchi ko'makchi).

Bu birlik fors tilidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilida faol ishlatiladigan "uchun", "sababli", "bo'lgani uchun" kabi shakllar mavjudligidan kelib chiqib, keraksiz sinonimik yuk sifatida qaralishi mumkin.

*Astoyidil* – (chin yurakdan; fors tilidagi az + tahi + dil komponentlaridan tashkil topgan izofali birikma).

Bu so'z o'zbek adabiy tilida ba'zan rasmiy yoki badiiy kontekstdagina qo'llanadi. Biroq "chin yurakdan", "qalban", "samimiy" kabi o'zbekcha shakllar semantik va uslubiy jihatdan yetarli va qulay muqobillardir.

*Ovqat* – (arabcha aqvot so'zidan; birlik shakli – qut).

Ushbu birlik xalq tilida keng tarqalgan va uslubiy jihatdan neytral. Biroq uning "buzilgan shaklda o'zlashgani" haqida lingvistik bahslar mavjud. Shunga qaramay, "taom", "yemak", "g'izo" kabi boshqa muqobillar mavjud bo'lib, ular uslubiy kontekstga qarab tanlab ishlatilishi mumkin.

*Avvalambor* – (avval ham bor). Bu birlik "avval", "birinchi bo'lib", "eng avvalo" kabi shakllar mavjud bo'la turib, izchil fonetik va morfologik qurilishga ega emas. Ma'nodosh, tabiiy muqobillar: *avvalo, birinchi navbatda, hammadan oldin*.

*Ahil* – (ar. o'zaro totuv, inoq). Bu birlik, ehtimol, "ahl" so'zidan buzilgan holda o'zlashgan. Biroq arab yoki fors izohli lug'atlarida "ahil" shaklidagi to'g'ridan-to'g'ri so'z mavjud emas. O'zbek tilida esa bu so'z "totuv", "ittifoq", "inoq" kabi muqobillar bilan almashtirilishi mumkin.

*Ayyom* – (yavm – kun; ko'plik shakli). O'zbek tilida bu so'z bayram kunlari, tantanali davrlar ma'nosida ishlatiladi: ayyomingiz muborak. Biroq ikkinchi ma'nodagi qo'llanmasi (bayram kuni) uslubiy jihatdan sun'iy yoki rasmiy-tantanavor tus olib qolgan. Bu yerda *bayram, quvonchli kun, xursandlik ayyomi* kabi shakllar tabiiyroqdir.

*Izza* – (Izohli lug'atda: uyalish, xijolat bo'lish). Aslida bu birlik اِذًا (*izā*) shaklida bo'lib, "azob, aziyat" ma'nosini bildiradi (Farhang-e

Buzurg-e Suxan). Ma'nodagi bu tafovut, uni hozirgi adabiy til kontekstida ishlatishda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

*Oromgoh* – fors tilida bu so'z "qabr, go'r" ma'nosida ishlatiladi. O'zbek tilida esa "dam olish joyi" ma'nosida izohlangan. Shunga ko'ra, "oromgoh" so'zining o'rniga *istirahatgoh*, *dam olish maskani* kabi birliklar uslubiy jihatdan aniqroq va tushunarliroq hisoblanadi.

*Boz ustiga* – fors tilida "yana, tag'in" ma'nosidagi boz so'zidan yasalgan. O'zbek tilida esa bu shakl o'rnida *ustiga ustak*, *buning ustiga*, *qolaversa*, *yana ham* kabi iboralar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan aniqroq va ko'proq ishlatiladigan shakllardir.

*Boyvachcha* – (boyning bolasi). Bu birlik uslubiy jihatdan o'ziga xos ijtimoiy-mazax ohangiga ega. Shaklan "boyvachcha" o'rniga boy bola, boy o'g'li singari birliklar uslubiy muvozanatni saqlaydi.

#### **4. O'zlashgan leksik qatlamga doir umumiy kuzatish.**

*Bahuzur*, *baxshida*, *badkarda*, *baralla*, *baravj*, *baror*, *bardor*, *bamaylixotir*, *banogoh*, *bamisoli*, *baharhol*, *baharnav*, *bebaror*, *bexosdan*, *bezorijon*, *tilsim*, *murosa*, *mijoz*, *nogiron*, *sartarosh* kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida faol ishlatilayotgan, biroq tarixan fors yoki arab manbalaridan o'zlashgan birliklardir. Bugungi kunda ularning 20 foizdan ortig'i adabiy tilning leksik fondini tashkil etadi.

Biroq bu kabi so'zlarning barchasi bir xilda muhim yoki muqarrar deb bo'lmaydi. Ulardan ba'zilari fonetik yoki semantik jihatdan mutanosib bo'lmagan holda qabul qilingan, ba'zilar esa o'zbek tilida mavjud bo'lgan birliklar bilan to'liq almashtirilishi mumkin.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili bevosita o'z so'z yasovchanligi va boy ichki imkoniyatlari orqali o'z leksikasini to'ldirish salohiyatiga ega. Yangi so'z qabul qilish jarayoni ona tilining tabiiy rivojiga zid bo'lmasligi, balki ehtiyotkorlik, izchillik va estetik mezonlarga asoslangan bo'lishi kerak.

O'zbek xalqining madaniy qadriyatlarida kelin tanlash jarayoni qanchalik sinchiklab o'tkazilsa, tilga kiruvchi so'zlar tanlovi ham shunchalik chuqur tahlil va sinovdan o'tishi lozim. "So'z – tilning nomusi" degan tamoyil til siyosatining asosiy g'oyalardan biri bo'lishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilshunosligida bugun ham ma'naviy javobgarlik asosida harakat qilish, mavjud fonetik va semantik noaniqliklarni bartaraf etish, leksik tarkibni o'zlikka qaytarish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan birliklar til tizimiga kiritilayot-

ganda semantik zarurat, fonetik moslik, uslubiy qulaylik va ijtimoiy qabul mezonlari asosida tanlab olinishi lozim. Til boyligini ta'minlash maqsadida ortiqcha, tushunarsiz yoki tizimdan tashqari birliklarni kiritish emas, balki mavjud imkoniyatlarni puxta tahlil qilib, maqsadga muvofiq ishlatish zarur.

### **Xulosa va takliflar**

Til ijtimoiy hodisa sifatida uni o'rab turgan ijtimoiy-siyosiy muhitdan bevosita ta'sirlanadi. Jamiyatdagi til egalari – ya'ni uni ishlatuvchilarning mavqeyi va ijtimoiy holati qanday bo'lsa, tilning rivojlanish darajasi ham shunga mutanosib bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqi qariyb bir asr davomida rus hukmronligi ostida bo'lgan davrda til ham siyosiy va madaniy bosimga uchragan, bu holat uning leksik va grammatik tuzilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Buning oqibati hozirgi kungacha sezilib turadi.

Avval ta'kidlanganidek, tildagi eng o'zgaruvchan qatlam – bu lug'at sathidir. Tilning fonetik va grammatik tuzilmasida yuz beradigan o'zgarishlar esa ko'proq *sekin, tadrijiy va tabiiy rivojlanish* xususiyatiga ega. Shu boisdan ham O'zbekiston va Afg'onistonda shakllangan o'zbek adabiy tillari o'rtasida fonetik va grammatik jihatdan keskin tafovutlar kuzatilmaydi. Ikki hududda yashovchi o'zbeklar tili o'rtasidagi farqlar, asosan, lug'at sathida namoyon bo'ladi. Ushbu leksik tafovutlarni ilmiy asosda tahlil qilish va bartaraf etish alohida tadqiqot mavzusi sifatida qaralishi lozim.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Afg'oniston o'zbeklari o'z adabiy tilini shakllantirish uchun zarur bo'lgan moddiy asos va siyosiy imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli u yerda yashovchi o'zbeklar uchun umumtushunarli adabiy til yaratishda O'zbekiston adabiy tiliga asoslanish zaruratga aylangan. Biroq bu jarayonda ilgari yo'l qo'yilgan ba'zi xato va nomuvofiqliklarni takrorlamaslik muhim ahamiyatga ega.

Agar o'zbek tilining izohli lug'atlarini tahlil qilsak, ularda muhim mantiqiy ma'no yukiga ega bo'lmagan, til boyligi sifatida qabul qilish qiyin bo'lgan, yo'naltirilmagan yot so'zlar juda ko'p uchraydi. Bunday befarqlik tilning emas, balki millatning ma'naviy holatiga nisbatan ham bepisandlik belgisi sifatida talqin etilishi mumkin. Uzoq tarix, boy adabiyot va yuksak madaniyatga ega bo'lgan xalq tilining bunday holati – beparvolikdan emas, balki e'tiborga muhtojlikdan dalolatdir.

Maqolaning avvalida til faqat o'z ichki imkoniyatlari hisobigagina yashay olmaydi, deb ta'kidlagan edik. Bu haqiqat. Boshqa

tillardan so'z qabul qilish – tabiiy va zarur jarayon. Ammo bu jarayonda lingvistik ehtiyotkorlik talab etiladi. Zero, til nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri va ichki kechinmalarining ham eng asosiy ifoda vositasidir.

Shuni unutmashimiz kerakki, har bir tilning boyligi va go'zalligi – shu til egalari bo'lgan xalqning ma'naviy boyligi va didining ko'zgusidir. Shunday ekan, adabiy tilni haddan tashqari soddalashtirib, xalq og'zaki nutqining darajasiga tushirib yuborish ham, uni ortiqcha murakkablashtirib, mutaxassisdan boshqa hech kim tushunmaydigan holga keltirish ham to'g'ri yondashuv emas. O'zbek tilining tabiati – o'zbek xalqining tabiati kabi sodda, samimiy va mo'tadildir. U ortiqcha dabdabani ham, haddan ortiq qo'pollikni ham rad etadi. Tilga bo'lgan yondashuvda ham ayni shu muvozanatni saqlash zarur.

### **Adabiyotlar**

Abdurahmonov, G., va Rustamov, A. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent: O'qituvchi.

Madvaliyev, A. 2021. *O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli*. Toshkent: O'zbekiston.

Tursunov, U., va O'rinboyev, B. 1982. *O'zbek adabiy tili tarixi*. Toshkent: O'qituvchi.

انوری، حسن (۲۸۳۱). فرهنگ بزرگ سخن. ۸ جلدی. تهران: سخن.

## **On some Problematic words in the Uzbek Literary Language**

Noorullah Altay<sup>1</sup>

Tuyg'un Hussamuddin<sup>2</sup>

### **Abstract**

This article provides a comprehensive analysis of the current status of the Uzbek language as one of the major Turkic languages

---

<sup>1</sup> *Altay Noorullah Nematullah* – Associate Professor, Department of Uzbek Language and Literature, Faculty of Social Sciences, Javzijan University, Islamic Emirate of Afghanistan.

**E-mail:** Altaynoor61@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0008-8413-4247

<sup>2</sup> *Tuyg'un Sayed Hussamuddin* – Head of the Department of Uzbek Language and Literature, Faculty of Social Sciences, Javzijan University, Islamic Emirate of Afghanistan.

**E-mail:** husomiddin@gmail.com

**ORCID ID:** 0009-0002-9862-0867

**For citation:** Noorullah Altay, Tuyg'un Hussamuddin. 2025. "On some Problematic words in the Uzbek Literary Language". *Uzbekistan: Language and Culture 2*: 20 – 35.

spoken by over fifty million people worldwide, focusing on its situation in Uzbekistan and Afghanistan, as well as pressing issues in these two regions that require resolution. Initially, the historical development of the Uzbek language in Uzbekistan up to the period of independence is examined, with particular attention to the phonetic, lexical, and partially grammatical inconsistencies that emerged under the influence of the Russian language in previous periods and their impact on the development of the contemporary literary language.

The article also explores the linguistic situation of Uzbeks living in Afghanistan, analyzing problems related to language policy that have arisen due to the lack of official status of the Uzbek language there. It examines the social and cultural role of the language among Afghan Uzbeks, the level of its usage, and the factors hindering its development according to literary norms, while highlighting existing opportunities from a scientific and theoretical perspective.

Finally, the article outlines the prospects for the formation, popularization, and sustainable development of the literary Uzbek language in Afghanistan and presents concrete proposals and recommendations for measures that should be undertaken in this regard.

**Key words:** *Uzbek literary language, state language, national language, history of the Uzbek language, phonetic system, language policy, influence of Russian, Uzbek language in Afghanistan.*

### **References**

- Abdurahmonov, G', va Rustamov, A. 1982. *Qadimgi turkiy til*. Toshkent: O'qituvchi.
- Madvaliyev, A. 2021. *O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli*. Toshkent: O'zbekiston.
- Tursunov, U., va O'rinboyev, B. 1982. *O'zbek adabiy tili tarixi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Anvari, Hasan. 1382 [2003/2004]. *Farhang-e Bozorg-e Sokhan*. 8 vols. Tehran: Sokhan.